

33-dars

Darsning mavzusi: Egalik qo'shimchalarining unli va undoshdan keyin qoshiladigan shakllari (144-148-mashqlar)

Darsning ta'limiy maqsadi: egalik qo'shimchalarining unli va undoshdan keyin qo'shiladigan shakllari haqida ma'lumot berish; mashq va topshirqlardagi matnlarni tinglab tushuna olish, so'z turkumlari bilish, ularni ajrata olish;

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarda vatanparvarlik, tabiatga g'amxo'rlik hissini kuchaytirish; axborot manbalaridan va darslik materiallaridan tashqari (kitob, lug'at) manbalardan ma'lumotlarni izlab topa olish va foydalanish; o'zining xato va kamchiliklarini to'g'ri tushunib, o'zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish, kattalarga, kichiklarga va o'rtoqlariga yordam berish; milliy qadriyatlarni bilish;

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: o'rganilgan bilim, ko'nikmalarini takomillashtirish va hayotda qo'llay olish malakalarini shakllantirish ; talaffuz me'yorlariga rioya qila oladi, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila olish, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay oladi, o'zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo'llay olish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi dars.

Darsning metodi: suhbat, analiz, "Blits so'rov" metodi, ko'rgazmalilik.

Darsning jihozlari: mavzuga oid turli mazmunli rasmlar, multimedia ilovalari.

Darsning borishi

I.Tashkiliy qism.

-salomlashish, davomatni aniqlash, o'quvchilarni darsga hozirlash.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi:

Toza havo – dardga davo

1. Uyga berilgan vazifa o'quvchilar daftari ko'rib chiqiladi.
2. Suhbat yordamida uy vazifasi qanday bajarilganligi aniqlanadi.
Javob bergen va husnixat asosida yozgan o'quvchilar daftarları namuna sifatida ko'rsatilib rag'batlantiriladi.

III. Yangi mavzu bayoni.

Lug‘at diktant.

Bilak- bilagi, tovoq – tovog‘imiz, buloq- bulog‘i.

O‘quvchilar yozganlarini tekshiradilar.

So‘zda qanday tovush o‘zgarishi bo‘lganligi aniqlanadi va tahlil qilinadi

Qoida o‘rganiladi va bat afsil tushuntiriladi.

Yod oling.

144- mashq. Shartiga ko‘ra bajariladi.

Odam bolasi- elning lolasi

145-mashq. Mashq sharti o‘qiladi va yoziladi

Namunada ko‘rsatilgandek bajarish kerakligi tushuntiriladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

146-mashq . Mashq shartiga ko‘ra bajariladi.

“Mening Vatanim” matni o‘qiladi. Tarbiyaviy jihatlari o‘quvchilarga singdiriladi.

Topshiriq

“Kim chaqqon” o‘yini



O‘quvchilarga tarqatmalar tarqatiladi va rasmlar orasidan bir xil rasmlar birlashtirib chiqiladi. Tez bajargan o‘quvchi g‘olib deb topiladi va rag‘batlantiriladi.

147-mashq

Tushurib qoldirilgan so‘zlarni o‘z o‘rniga qo‘yib, jadvalni to‘ldiring.

Shaxs	Birlik	Ko‘plik
I	maqsadim	maqsadimiz

II	maqsading	maqsadingiz
III	maqsadi	maqsadlari

Shaxs	Birlik	Ko‘plik
I		
II	vazifang	
III		

Shaxs	Birlik	Ko‘plik
I	xohishim	
II		
III		

V. Darsga yakun yasash va baholash

Dars yakunida o‘quvchilar joriy darsda o‘zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So‘ngra dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish.

148-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta’kidlanadi.